

Yo'g'on tepa

Bugun shanba, idora xodimlariga maosh berilayapti. Odatda idora boshliqlarining hurmati uchun kassir kabinetga vedomost ko'tarib kiradi.

Qodirov kassir uzatgan pulni sanamay, stol tortmasiga solar ekan, dedi:

- Nuralievga ayting, kirsin!

Sal o'tmay, bosh buxgalter Nuraliev kirdi.

- Menga qarang, bugun bir otamlashmaylikmi? Maoshni bo'lsa, oldik. Pul xotinning qo'liga tegdimi, tamom. Paka qo'limizdaligida yayrab olaylik.

Bu gap Nuralievga ham yoqdi. Qodirov stol yonidagi tugmani bosdi. Sekretar qiz kirdi.

- Apsamatov bilan Sobirovni darrov chaqiring!

Apsamatov bilan Sobirov uzun-qisqa bo'lib kirib kelishdi.

- Qani,- dedi Qodirov, - olti-oltidan cho'zinglar. Yo'g'on tepaga borib, bir oshxo'rlik qilamiz.

Apsamatov jon deb turgan ekan, darrov olti so'mni stolga tashladi. Ammo Sobirov gardanini qashib turib koldi.

- Bo'ling, bo'ling,- dedi Nuraliev,- muncha lattachaynarsiz, olti so'm kimni o'ldiribdi?

- Olti so'm hech kimni o'ldirmaydi-yu, ammo keliningiz qancha maosh olishimni tochniy biladi. Undan tashqari, xotinsiz biron joyga borolmayman.

- E, sadqayi erkak keting, qo'ying bu gaplarni.

Sobirov jonidan sugurgandek qilib, olti so'mni qo'li qaltirab stolga qo'ydi.

Qodirov shofyorni chaqirib, xarajatga yubordi. Ish soati tugashi bilan to'rt kishi Yo'g'on tepaga qochishga ahd qilishdi.

Shundoq bo'ldi. Yo'gon tepa viloyatda eng salqin, eng xushmanzara joy. To'rt ulfat rosa yayrashdi. Shofyor oshga usta edi, har bitta guruch o'zi o'rmalab og'izga kirib ketaman doydi. Salatni aytmaysizmi, ko'k qalampir aralashgan salat dunyoda yagona bo'lsa ajab emas. Oshga bostirilgan yearimsoqpiyoz yangi so'yilgan qo'yning iligidan afzal bo'lsa afzalki, kamligi yo'q.

Xullasi, to'rt ulfat kech soat o'n bir yarimgacha maishat qilishib, o'n ikkidan sal oshganda shaharga qaytishdi.

Bunday paytlarda boshliqlar juda saxiy bo'lib ketishadi. Qodirov ham shunday fazilatdan xoli emas. Sheriklarini bir-bir eshiklari oldiga tashlab, uyiga o'tib ketdi.

Ajoyib osh uchun shoferga rahmat aytib, o'zi ham darvozasi oldida tushib qoldi. Eshikni qoqdi. Ichkaridan javob bo'lmadi. Yana eshik qoqdi. Qo'shnilar nima gap deb yugurib chiqishdi-yu, Qodirovning xotini chiqmadi. Yarim soat eshik qoqdi.

Xotini eshik orqasida turgan ekan, axmri ovoz berdi.

- Nega eshik ochmaysan, majlisdan o'ladigan bo'lib kelsam ham, shunaqa qilasanmi?

- Boradigan joyingizga boravering. Osh yegan joyingizda yotishga joy qilib berishmadimi? O'shaqqa borib yoting!

Qodirovning dami ichiga tushib ketdi. Ancha vaqtgacha "g'iring deymay turib qoldi.

- Qo'y, xotin, qo'ni-qo'shnilarning oldida sharmanda qilma. Uyda bafurja gaplashamiz.

Xotin javob qilmadi. Oyoq tovushining uzoqlashgani eshitildi. Ana shundan keyin Qodirov yana yarim soatcha eshik taqillatdi, bo'lmadi. Orqasiga qaytdi. Mashina ketib bo'lgan, soat birdan oshib avtobuslar ham siyraklashib qolgandi. Idora, o'hho', qancha joyda.

Qodirov soat ikki yarimlarda idoraga qaytib keldi. Qarasa, kabinetning ko'cha tarafga qaragan derazasidan yorug' tushib turibdi.

Uborshitsa pol yuvayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Qorovul keling aka, deb darvozani ochdi.

- Otchyotga tayyorlanadigan edim, shu yerda tinchgina...

Kabinet eshigini ochish bilan hayron bo'lib to'xtadi qoldi. Bosh buxgalter Nuraliev yechinmay, divanga chalqancha yotib olgan, kabinetni boshiga ko'tarib xurрак tortardi.

Nima balo, uyiga tashlab kelgan edim-ku, deb hayron bo'ldi Qodirov. U qorovuldan plan bo'limining kalitini so'radi.

- Ochiq, aka.ochiq. Apsamatov inim divanda yotibdilar.

- Kadrlar bo'limi-chi?

- U yer ham ochiq. Sobirov yotibdi.

Qodirov nima qilishini bilmay, garajning kalitini so'radi.

- U yer ham band, shofyoringiz "Volgada yotibdi.

Qodirov qaqqaygancha turib qoldi.

- Menga qarang, ota, - dedi u qorovulga. - Sizga javob. Uyingizga borib, yota qoling. Biz bugun tong otar otchyot tuzamiz.

Ko'rpa-yostiqni yig'mang. Charchaganimda men yotaturaman.

- Umringdan baraka top, bolam. Kampirim otdixing qachon, deb so'rayotgan edi. Juda bopta bo'ldi.

Qorovul chol duo qilib, uyiga jo'nab qoldi. Qodirov uning o'rniga yonboshladi.

To'rt oshxo'r idorani boshlariga ko'tarib, xurрак tortishardi.

Ayniqsa, boshbux Nuraliev karnayga o'xshatib tortar ekan. Bu kecha to'rt oshxo'rning xotini xafa, birgina qorovul cholning xotini xursand edi.

Kataysa

Qosimjon mashinada xotinini bir aylantirmoqchi bo'lib turganda, eshik taqillab qoldi. Chiqsa singlisi bilan kuyovi. Aka-singil o'rtasida andak gap qochganidan ular anchadan beri ko'rishishmagan edi. Qosimjon katta boshini kichik qilib yo'qlab borolmadi, singlisi har qalay ayol kishi emasmi, o'zi eshik qoqib keldi. Qosimjonning boshi osmonga yetdi. Xotini to sabzi-piyozini qovurib bo'lguncha, gir etib borib, bitta konyak topib kelmoqchi bo'ldi. Kuyovining hayhaylashiga ham qaramay, darvozani ochib mashinani olib chiqdi. Yangi "Moskvich oftobda yaraqlab yel quvib ketdi.

Bugun dam olish kuni bo'lganidan ko'chada mashina uncha ko'p emas edi. Magazinni tushlikka bekitishmasin deb, u mashinani yeldek uchirib katta gastronomga keldi. Odam ko'p. Konyak ichadiganlarning ini buzilganmi, hammasi besh yulduzligidan so'raydi. Qosimjonning navbati kelguncha ham anchagina vaqt o'tdi. U shishani qo'litiqqa tiqib chiqsa, mashina oldida bir gala bola chug'urlashyapti. Biri kapotini silaydi, biri bo'lsa, oldiga minib olibdi.

Qosimjon pashsha qo'rigandek qilib, bolalarni tirqiratib quvib yubordi. Bir mahal qarasa, shundoqqina ko'rinadigan joyiga kimdir mix bilan "Erkin deb qirib yozib qo'yibdi. Qosimjoshshng joni kekirdagiga keldi.

- Kim qildi?

Bir qiz ko'chaning narigi betiga qarab qochayotgan ishtonchan bolani ko'rsatdi.

Qosimjon jon holatda uning ketidan quvdi. Bola zinadan pildirab ikkinchi qavatga chiqdi-yu, chap qo'ldagi eshikka kirib qarsillatib yopib oldi.

Qosimjon hansirab qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Sal o'tmay, eshik ochildi. Uning qarshisida pijama kiyib, boshini xotinlarning kosinkasi bilan tang'ib olgan direktori Bek aka turardi.

- Iya, iya Qosimjon, keling, keling.

Qosimjon nima qilishini bilmay, birpas serrayib turib qoldi. Keyin chaynalib tilga kirdi:

- Shundoq, o'zlarini bir yo'qlab qo'yay deb... Aytganча, yangi uylar muborak, Bek aka.

Bek aka mamnun iljayib, uning qo'ltig'idagi shishaga qaradi.

- Ha, aytganча, uyga quruq kelmay, deb.

- Qani, qani ichkariga. Zap ish qipsiz-da, Qosimjon. Uzim ham bir dildor hamsuhbatga ko'nglim ketib turgan edi. Aytganча, kichkina "Chayka muborak bo'lsin. Mashina opsiz, bir kataysa qildiraman ham demaysiz.

Qosimjon shoshib javob qildi:

- o'zi atayin shunga kelayotgan edim. Bugun dam olish kuni, xo'jayinni bola-chaqalari bilan bir o'ynatay, deb kelayotganim shu-da.

Ichkariga kirishdi. Xo'jayinning xotini archilgan sariq shaftolidek bo'lib vannadan chiqib keldi. U Qosimjonni ko'rib, ensasi

qotgandek qoshlarini kerib bir qaradi-yu, narigi xonaga o'tib ketdi. Keyin ichkaridan uning palag'da tovushi eshitildi:

- Erkiningiz vannaniyam rasvo qipti. Suvni tortmayapti. Tuzatib bering.

- Obbo, - dedi Bek. - Umrimde qilmagan ishim. Qandoq tozalashni bilmasam.

U iltijo nazari bilan Qosimjonga qaradi. Qosimjon ham bu qarashning manisiga yetdi. Dik etib o'rnidan turdi-yu, vannaga qarab yurdi.

Vanna ichi mag'zavaga to'lgan, teshigi o'lgur suv tortmayapti. U bilagini shimarib, qo'lini tiqib, yarim soatcha urindi-yu, oxiri suv tortadigan joyidan ikkita yong'oq olib tashladi.

- Ha, barakalla, - dedi Bek. - Texnikani egallagan kishilarning sadag'asi ketsang arziydi. Rahmat, uka.

Qosimjon to vannani tozalab chiqquncha, Bek zakuskani boplab, konyakni ryumkalarga quyib, unga mahtal bo'lib turgan ekan.

Bittadan ichib olishdi.

Shu payt Erkin kirdi. Qosimjon mashinani rasvo qilgan bolani yeb tashlashga tayyor edi. Ammo unga qarab mayin iljaydi.

Qiziqchilik qilib, bir ko'zini qisib, mo'ylabining bir uchini qimirlatdi. Bola uning bu hunariga qoyil qolib yaqin keldi.

- Amakinglar-chi, hozir bizni mashinada aylantirib keladilar. Maza qilasan, o'g'lim.

Ichkaridan xonimning tovushi keldi:

- Feodallarga o'xshab o'zlaring maza qilmanglarda, biz sho'ring qurg'ur ezilgan xotinlarni ham aylantiringlar. Shundoq pochchamnikiga ham birrov kirib o'taman.

Yana ikki ryumkadan otib olishdi.

Ketishda Erkin bo'yoq qalamlarini ham olib chiqqan ekan. Yo'l-yo'lakay sirlangan eshikka, old tomoniga suratlar ishlab bordi. Bek uning rassomligiga qoyil qolib, maqtab borardi.

- Xotin, bu qizitalog'ingdan rassom chiqadiganga o'xshaydi. Qarqunoqdan bulbul chiqibdi, deb shuni aytadilar-da.

Bolaning qo'lidagi qalam o'lgurning uchi po'latdanmi, nima balo, chizgan joyini qiradi. Bola mashina devorini emas,

Qosimjonning yuragini qirayotgandek. Ichi kuyib ketyapti. Go'rmi bir nima deb bo'ladimi. Qaytaga uni maqtaydi.

- Obbo azamat-e, maktabda rasmdan besh olsangiz kerak, a?

Bola yo'lda ikki marta xarxasha qilib, morojenoe oldirdi. Ikkalasida ham Qosimjonning o'zi tushib olib chiqdi. Xotinning

pochchasinikiga ham borishdi. Ular kirib ketishganicha bir osh pisharli vaqtda chiqishdi. Yana yo'lga tushdilar.

Kechga yaqin xo'jayinlarni uylariga keltirib qo'ydi-yu, to zinadan chiqib ketgunlaricha Erkinni kuldirish uchun har xil qiliqlar qilib turdi.

U endi kabinaga kiraman deb engashgan ham ediki, militsioner osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, oldida paydo bo'ldi.

Guvohnoma so'radi. Qosimjon yonini kovlayotganda, militsionerning qoshlari chimirilib ketdi.

- Shoshmang, shoshmang, bitta "huh deb yuboring-chi.

Ana shundan keyin nima bo'lsa bo'ldi. Militsioner uni obormagan joyi qolmadi. Mast shofyorlarni tekshiradigan joyga oborib,

stakanga "huhlatib ham ko'rди. Guvohnomasini olib, rulga yaqinlashtirmay, orqaga o'tqazib, o'zi kichkiia "Chaykani haydab uyiga opkelib qo'ydi..

Singlisi ham, kuyovi ham suzib keltirilgan oshga qo'l urmay, xavotirda o'tirishgan ekan. Xotini bo'lsa, mashina pacha-pacha

bo'lganu, erim o'likxonada qonga belanib yotibdi, deb o'ylab ko'ngli ozib divanda yotardi. U erining tovushini eshitib, arang boshini ko'tardi:

- Qayoqda edingiz?

Qosimjonning tili kalimaga kelmadi. Dir-dir titrardi. Oxiri, ikki-uchtagina gapni bir amallab og'zidan chiqardi:

- Ajdarning og'zida edim. Ammo, kerakli ajdar, xotin.

Bosh og'rig'i

Iskandarov boshqarmadan eshitadiganini eshitdi. Olib kelgan hujjatida yana xato. Ikki yuz o'ttiz ming o'rniga ikki yuz o'ttiz

yo'zilibdi, Hujjatga qo'l qo'yayotganda yaxshi qaramagan ekan. Mana, boshqarma plan bo'limida uni rosa qizartirishdi.

Hozir Iskandarov mashinada o'zidan o'zi ming'illab sekretar qizning go'riga gisht qalab kelyapti. Undoq qilaman, bundoq qilaman, bunaqa sekretarning boridan yo'g'i. Bo'shataman...

U tajang bir qiyofada idoraga kirdi. Mashinka shiqillatib o'tirgan sekretar qizning betiga ham qaramay, kiring, deb o'tib ketdi.

O'zini kresloga tashlab, stolni chertib, asabini bosmoqchi bo'lib turganda lablari qip-qizil, beli supurgining boylangan joyidek

ingichka, ikki qulog'iga oftobni uzib olib qo'ygandek yaltiroq zirak taqqan, jo'xori popugidek mayin sochli bir qiz kirdi. U sekretar edi. Iskandarov unga xo'mrayib qaradi. Sekretar qiz ko'zlarini suzib, bir-ikki marta kiprik qoqdi. Tavba. Iskandarovning shu

paytgacha razm solmagaiini qarang-a, kiprik ham shunaqa uzun bo'ladimi? Har kiprik qoqqanda ikki yuzini berkitib qo'yadi-ya.

Iskandarov bir necha daqiqa unga mahliyo bo'lib turdi-da, o'zini bosib oldi. Boyagi jahli yana taniga qaytib keldi. Endi qizning

betiga emas, polga qarab gapirishga chog'landi. Nima balo bo'ldi-yu, ko'zi chalg'ib sekretar qizning ignadek poshnasiga, undan

keyyn ilon po'stiga o'xshash noskisiga ko'zi tushdi. Yana jahli o'lgur allaqayoqqa qochib ketib, yuziga bilinar-bilinmas tabassum

yugura boshladi, Iskandarov bir seskanib, yana hushini yigib oldi. Endi u deraza tarafga qarab gapga chog'landi.

Deraza oynasidan yana qizning chehrasi namoyon bo'ldi. Beixtiyor dilidan "beli, yelkalari deraza oynasidan shundoq ko'rinsa, to'g'ri qaraganda qandoq bo'ldi ekan degan fikr o'tdi.

Ochiq derazadan kirgan mayin shamol qizning prichyoskaga so'z bermagan ikki tola sochini bo'yniga, tomog'ining tagiga, yarim dekolte ko'kragiga tekkizib o'ynardi.

Iskandarov bir necha minut tabiatning bu mo'v'ijizasiga lol qarab qoldi. Gapiray desa, tildan qolganga o'xshaydi, xo'mrayib qaray desa, yuzidagi tabassumni yig'ishtirib bo'lmaydi.

Erkak odam ancha irodali bo'ladi. Iskandarov ham bor kuchini yig'ib, o'rnidan turdi. Zarda qilib, burchakka bordi-da, ikki qo'lini orqasiga qilib o'girilib oldi.

U shu turishicha qancha turganini aniq bilmaydi. Qiz yo'taldi. Bay bay uning ovozi. Bu ovoz uni yana seskantirdi. Nazarida qiz sekin kelib ikki ko'zini berkitib oladigan, oynami, taroq deydiganga o'xshab shoshib o'girilib oldi.

Shu alfozda yarim soatdan ortiq Iskandarov goh seskanib, goh qaltirab, goh g'azabu, goh tabassum bilan mushuk-sichqon bo'ldi.

Oxiri sekretar qiz boshliqni yengganiga ishonch hosil qildi.

- Iskandarov aka, nimaga chaqirgan edingiz? - dedi.

Iskandarov nima deyishini bilmay, ozroq chaynaldi:

- Kecha boshim og'riyapti degan edingiz, qalay, endi durustmisiz?

- Haliyam jindek og'rib turibdi, Iskandarov aka.

Birdan Iskandarovning mehribonchiligi tutib ketdi.

- Siz g'alati odam ekansiz-ku, sog'liqni ehtiyot qilish kerak. Bunaqada dardga chalinib qolasiz. Boring, uyga borib dam oling.

Bosh og'rig'ingiz bosilmasa, bir-ikki kun ishga chiqmasangiz ham mayli. Sog'liq kerak, sog'liq.

Qiz minnatdorchilik bildirib chiqib ketdi.

Ertasiga Iskandarov ogohlantirish oldi. Sekretar qiz otchyoetni ko'chirganda, "boshqarma o'rniga "moshqarma deb yozibdi.

Iskandarov yana g'azabga keldi.

Bunaqa g'azablarning ko'pini ko'rganmiz...

Sobiq o'g'ri

Xoh qaridir, xoq yoshdir, og'ziga ehtiyot bo'lishi kerak ekan. Hoshimjon qiziqib ketib bir ogiz gap aytdi-yu, baloga qoldi.

- Bolalik ekan, ota-ona yo'q, bozorda bitta qovun o'g'irlab qo'lga tushib qoldim. Militsnyada bir kun o'tirganman. Esimga tushsa, hali-hali xijolat bo'laman. Shunga ham qirq bir yil bo'пти.

Bor-yo'g'i bo'lgan gap shu. Suhbatdoshlar orasida bir ilmiy xodim o'tirgan ekan. Qachon, qaerda, deb surishtirib qoldi.

Hoshimjon yaqinda pensiyaga chiqqan. O'ttiz yil o'qituvchilik qildi. Axir u uncha-muncha o'qituvchi emas, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi. Eng kamida ikki-uch ming bolani o'qiktgan. Uning talabalaridan necha fan kandidati, nechalab injener, doktor chiqqan.

Uch-to'rt kundan keyin Hoshimjonnikiga o'sha ilmiy xodim keldi. Bola tarbiyasi va qonun degan mavzuda ezilib gaplashpb o'tirishdi. Gap orasida u Hoshimjondan:

- Militsiya qo'lga tushib chiqqaningizdan keyin o'zingizga qanday xulosalar chiqargansiz? - deb so'rab qoldi.

Hoshimjon nima deyishini bilmay, birpas chaynaldi. Keyin javob qildi:

- Bu gapga qirq yildan oshgan. Hozir esimda yo'q qanaqa xulosa chiqarganim.

- Har holda, - dedi ilmiy xodkm.

- Har holdami? Har holda o'zimga tegishli xulosa chiqargan bo'lishim kerak. O'shandan keyin qovun yemaydigan bo'lib ketganman.

- Demak, militsiyaning tarbiyaviy rolini inkor qilmaysiz?

Hoshimjonning g'ashi keldi, shundoq bo'lsa ham, ha, albatta, dedi.

Shu bilan gap tamom bo'ldi. Ammo oradan sal kun o'tib, uyiga bir taklifnoma keldi. Unda "Hurmatli Hoshimjon Olimjonov, bilim yurti talabarlari bilan uchrashuvga kelpshingiznk iltimos qilamiz deyilgandi.

Bunaqa joyga, yana manavinaqa taklifga yo'q deb bo'larmidi. Hoshimjon soqoliii qirtishlab, yaxshi kostyumini kiyib, yetib bordi.

Bilim yurti klubiga odam sig'maydi. Eshikda "Teletsentr deb yozilgan avtobus. Ichkarisida projektorlar, kinooperatorlar...

Hoshimjonni minbarga taklif qilishdi. Qarasa, tunov kungi ilmiy xodim yuqorida o'tiribdi. Bunga ham Hoshimjon hayron

bo'lmadi, o'tirgan bo'lsa, o'tirgandir-da, deb qo'ya qoldi. Ammo u minbarga chiqib, gap boshlaganda, hayronlikdan og'zi ochilib qoldi. Ilmiy xodim berilib, ovozini goh baland, goh past qilib gapirardi:

- ...Mana, qarshingizda sobiq jinoyatchilar, yo'lto'sarlar, mayda o'g'rilar...

Hoshimjonning ko'zi tinib ketdi. Gapning davomini eshita olmadi. Chunki qulog'i shang'illab, boshi aylanib ketgandi. Ilmiy xodim davom etyapti:

- Ammo bu jinoyatchilar bizning yordamimizda qayta tarbiyalangan, jamiyatimizning ongli grajdanlariga aylangan...

Hoshimjon holdan toydi. Qanday qilib yig'in tugaganini, qanday qilib uyiga kelganini bilmaydi.

Oradan uch kun o'tib, televizor ko'rib o'tirsa, birdan tunov kungi ilmiy xodim chiqib qoldi. U yana o'sha gapni qaytarar uchrashuvda olingan kinolentani qo'yib, "sobiq o'g'rilarining basharasini ko'rsatardi.

Hoshimjon yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Chunki yonida ikki nevarasi, kelini o'tiribdi. Undan tashqari, necha minglab shogirdlari shu topda "sobiq o'g'ri ustozlarini ko'rib o'tirishgandir...

Shu gapdan buyon oradan sakkiz oy o'tdi. O'sha ilmiy xodim fan kandidati degan ilmiy darajaga sazovor bo'ldi.

Bu gaplardan uni kandidat qilgan "sobiq o'g'rining xabari yo'q edi.

Paypoq

Orifjon shu trestga ishga o'tgandan beri xotinidan tinmay gap eshitadi. Trest boshlig'i serulfat odam ekan. Har kuni ishdan keyin Orifjonni mashinaga o'tqazib, shahardan tashqariga opchiqib ketadi. Soya-salqin choyxonalarda oshxo'rlik qilishib, qosh qorayganda javob beradi.

Albatta, bu xil o'tirishlarda hadeb boshliqqa sarf qildiraverish insofdan emas. Xotining kunlik beradigan obed puli o'zidan ortmaydi, tekin yeyaverishga Orifjonning yuzi chidamaydi.

Orifjon xotinig bildirmay yordam kassasidan uncha-muncha pul oladigan bo'ldi. Ikki marta maosh ustidan avans ham oldi. Har

kuni, o'ldim deganda, o'n besh so'm sarf bo'laversa, pul chidaydimi?

Boshliq-ku, Orifjonni unchalik xarj qilishga qo'ymaydi. Ora-sira uyiga chaqirib ziyofat ham qilib qo'yadi. Shundoq bo'lgandan keyin Orifjon ham uni uyiga chaqirmasa, uyat bo'ladi-da!

Boshliq birinchi kelganda juda mamnun bo'lib ketdi. Bir haftagacha: "Bay-bay-bay-, kelinning mantisi, hali ham mazasi og'zimda turibdi-ya deb, tamshanib yurdi.

U hadeb shundoq deb turganda Orifjon indamasa odamgarchilikka kirmaydi, albatta:

- Yana tashkil qilamiz, - devordi.

Shu gapni deyishga dedi-ku, qandoq qilib xotiniga aytishini bilmay, bir-ikki kun chaynalib yurdi. Oxiri xotini ochilib-sochilib turganda aytdi. Xotining tepa sochi tikka bo'lib ketdi.

- Qandoq sulloh odam u? Yeydiganini yeb ketdi! Yana nima deydi?

Orifjon xotinini bosib qo'ydi:

- Undoq dema, xotin! Xo'jayin narsa. Aytganini qilmasak bo'lmaydi. Yaqinda maoshi ikki baravar ko'p ishga o'tkazmoqchi. Sen mantini boplayvergin, buyogiga xudo xohlasa oshig'imiz olchi bo'lib ketadi.

Xotini undoq desa, mundoq dedi, mundoq desa, undoq dedi, xullas, bir gal mantiga ko'ndirdi. Ammo bitta shart bilan. Ziyofat xarjini Orifjonning o'zi topib kelishi kerak. Ro'zg'orga ajratilgan mablag'ga tegish yo'q.

Obbo! Yordam kassasidan qarz bo'lsa, moyana ustidan ikki marta avans olgan bo'lsa, bu yog'ini qaydan topadi?

Orifjon o'ylab-o'ylab, birovdan qarz ko'taradigan bo'ldi. O'tgan moyanadan o'n to'rt so'm, yordam kassasidan olgan puldan sakkiz so'm, avans puldan yetti so'mi bor. Hammasi bo'lib yigirma to'qqiz so'mni paypog'iga yashirib qo'ygan. Toleiga Orifjonning oyog'i andek islanib turadi. Ikki kun paypog'ini yangilamasa, uyga pashsha to'lib ketadi.

Ana, shuning uchun ham er-xotin kir yuvish ishlarini o'zlari bo'lib olishgan. Orifjon paypoqni o'zi yuvadi, boshqa kirlar xotining bo'ynida. Paypoqqa xotin qo'l urmaydi. Pul yashirishga paypoqdan yaxshi joy yo'q.

Orifjon xotindan yashirib, paypoqda saqlab yurgan pullarini shu ziyofatga ishlatmoqchi edi, yangi gap chiqib qoldi. Yigirma oltinchi kuni boshliqning tug'ilgan kuni emish. Idorada hamma uch so'm-uch so'mdan qilib pul yig'ishyapti. Soat taqdim qilishar emish. Orifjondan pul olishmadi.

- Siz boshliqqa qadrton odamsiz, o'zingiz kattaroq sovg'a qilasiz.

Endi nima bo'ladi? Orifjon paypoqdagi pulga sovg'a oladigan bo'lsa, ziyofat uchun birovdan qarz ko'tarishi kerak. Shunday qildi. Bir oshnasidan ikki hafta muhlat bilan yigirma besh so'm qarz ko'tardi. Ikkita konyakdayoq pulining rangi o'chib ketdi. Shu puldan ham uch so'm qayirib, paypoqqa urdi. Go'sht-yog' ro'zg'ordan chiqdi.

Boshliq yolg'iz kelmadi. Ikki oshnasini ergashtirib keldi. Orifjon bilan bo'lib to'rt kishiga ikkita konyak nima bo'ladi? Jiyanini chiqarib, magazindan yana bir shisha uch yulduzligidan oldirib keldi.

Ammo kelin mantini yana boplabdi. Boshliq har gal mantini og'ziga solayotganda kelinning pazandaligini maqtab, Orifjonning qo'li ochiqligini tariflab turdi.

Yarim kechada mehmonlar tarqashdi. Ular ketishayotganda Orifjon eshikkacha kuzatib chiqdi.

- Juda erta ketyapsizlar-da, bir siqimgina osh qilmoqchi edik. Kelingiz oshni qiyvoradi-da.

Boshliq mashinaga o'tirar ekan, samimiy minnatdorlik bildirdi:

- Oshni kelasi gal yeymiz. Xo'pmi? Xafa bo'lmang, albatta kelamiz.

Orifjon ham o'zini tutolmadi. Boshliq shundoq deb turgandan keyin aniqroq bir gap aytish kerak.

- Bitta osh ekan-ku, kabobiga ham tayyormiz. Ammo qachonligini aytib aniq vada berib ketasizlar.

Boshliq orqa kabinada o'tirgan oshnalariga qaradi:

- Kelasi oddixga vaqtlaring qalay? Mening vaqtim bor.

Oshnalar, ixtiyor sizda deyishdi. Shundan keyin mashina gurillab jo'nab ketdi. Mashina ketdi-yu, shu ketishida yana bitta ziyofatning vadasini ham olib ketdi. Orifjon peshanasiga bittani urdi.

- Laqma bo'lmay o'! U gapirganda sen tinch tursang o'larmiding? Bu yog'ini xotinga qandoq tushuntirasan?!

U o'ziga, hay mayli, kelasi oddixgacha nima gapu nima so'z, bu yog'i keyin malum bo'ladi, deb uyga kirib ketdi.

Mehmon kelgan uy, albatta, ivirsimay iloji yo'q. Hovlining hamma yog'ida papiros qoldiqlari, qog'oz parchalari. U yoqda kir sochiq, bu yoqda yuviqsiz idish-tovoq. Orifjon o'zini mastlikka solib, darrov yota qoldi. Ertalab ishga ketayotganida karavotning tagiga qarasa, xotini yangi paypoq qo'yibdi.

- Xotin, paypog'im qani?

- Paygyug'ingiz qursin, bijg'ib ketibdi, otash kurakka qisib, ko'chadagi axlatga opchiqib tashladim.

Orifjonning darmoni qurib, o'zini yostiqaqa tashladi. Birdan hovliqib, ich ko'ylakda ko'chaga yugurdi.

Axlat mashinasi endi joyidan qo'zg'algan ekan. Qarasa, qo'shnisi ham ich ko'ylakda mashina ketidan chopib ketyapti. Yetolmadi.

Mashinaga yetib bo'ladimi? Orifjon hafsalasi pir bo'lib, ostonaga o'tirib qoldi. Qo'shnisi halloslab qaytib keldi. Orifjon sir boy bermay, bo'shshangancha qo'shnisidan so'radi:

- Nima gap, tong saharlab mashina quzib yuribsiz?

Qo'shni peshanasiga shatillatib bir tushirdi.

- Meni xudo urib qoldi! Birovga aytmangu, paypoqqa ikki yuz ellik yashirgan edim, bolalar axlatga tashlavorishibdi.

Orifjonning ichida bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Xayriyat, buniki atigi o'ttiz ikki so'm edi, qo'shnisikiga urvoq ham bo'lmaydi.

Ikki qo'shni bir-birlariga qarab, ranglari qum oqarib, indayolmay turishardi. Bu payt axlat mashinasi ikkovining ikki yuz sakson ikki so'mlarini nomalum tarafga olib ketardi.

Oshqovoq, 2

Homidjonovni yangi tuzilgan bir tashkilotga boshliq qilib yuborishdi.

Yangi tashkilot bo'lgandan keyin kamchiligi ko'p. Mayda-chuyda kamchiliklar Homidjonovning ko'ziga ko'rinmadi. Ammo mashinasi yo'qligi uni ko'p qiynab qo'ydi.

Yangi idoraga o'tgan kuni eski idorasi izzat-hurmat bilan mashinada opkelib qo'ydi. Odamlar bilan tanishdi, kabinetlarni aylandi, telefonlarning qulogini ko'tarib puflab ko'rди, po'lat sandiqning ichini ochib qaradi. Yangi ekan, bo'yoq hidi dimog'iga urilib yayratdi. Bufetchi ustiga sochiq yopilgan tarelkada kotlet opkirdi, maza qilib yeb, ustidagi sochiqqa lunjini artdi.

Xullasi, yangi idorada tartib joyida. Kamchiligi, noliydigan joyi yo'q.

Biroq, ishdan qaytadigan paytda eski idoraning qadri bilindi.

Homidjonov yigirma yildan beri piyoda yurmagan. Qaysi tramvay qayoqqa borishini bilmaydi. Qaysi avtobusda qayoqqacha borib, qaerda tushib qolish kerak?

Homidjonov tavakkaliga duch kelgan tramvayga chiqdi. Tramvay vokzalga oborib tashladi. Homidjonov yarim soat dovdirab avtobusga tushdi. Avtobus uni Qo'yliqqa oborib qo'ydi. Yana tramvayga chiqdi. Bu gal Chilonzorda tushdi. Yana trolleybusga chiqdi. Trolleybus bozorga tashlab, o'tib ketdi.

Undan bunga, bundan unga chiqdi. Chiqdi, tushdi. Qoq yarim kecha bo'ldi. Yonidagi pullar tramvay-trolleybuslarda tamom bo'ldi. Tramvaylar, avtobuslar parkka kirib ketishdi. Shahar jimib qoldi. Ko'chada Homidjonov bilan militsionerlar qolishdi.

Endi nima qilish kerak, uyga telefoylar qilib xotinidan adresini, qaysi avtobusda uyga yetib kelishini so'ray desa, avtomat telefon uchun yonida bir tiyin ham qolmapti.

Odamsizning boshiga ish tushsa, aqli kiradi deganlari rost ekan. Homidjonovning ham shu topda kallasi ishlab qoldi. Adresini yonidagi pasportiga qarab bilsa-ku bo'ladi. Shu gap esiga kelmaganini qaranga-a.

U shunday qildi. Pasportini chiroqqa solib qaradi.

Oshqovoq, 2.

Homidjonov Oshqovoq ko'chasini militsionerdan so'radi.

- Nechanchi uy? - dedi militsioner.

- Ikkinchi uy, ikkinchi,- dedi Homidjonov.

- E, omon bo'ling, mana ikkinchi uy. Uyingizning orqa tarafida turibsiz-ku.

Muni qaranga-a, yigirma yildan beri shofyor tushmagur uying orqa tarafidan biron marta ham olib kelmagan ekan-a. Axir Homidjonov shu bugun bu uy oldidan eng kamida yigirma marta o'tdi. Bilmaganini qaranga.

Militsioner kuldi:

- o'tkazib qo'yaymi, yo o'zingiz o'tib olasizmi?

Homidjonov jiddiy javob qildi:

- Baraka toping, o'tkazib qo'yganingiz maqul, yana adashib ketmay.

Homidjonov ertasiga ishga borolmadi. Kuni bilan oyog'i og'rib, divanda yotdi.

Nomi yo'q to'y

Asadullo Maxsumning o'rtancha o'g'li Sayfullo kecha qamoqdan keldi.

Ishdan kelsam ko'cha muyulishida besh-olti qo'shnim to'planishib turishi.

- Qayoqda yuribsiz, qo'shni, darrov u-bularingizni tashlab chiqing. Maxsum akadan ko'ngil so'rab qo'yamiz.

Hayron bo'ldim, nima deb ko'ngil so'raymiz? o'g'li armiyadan, yo biron xayrli joydan kelmagan bo'lsa, nimasini so'raymiz?

- E, bo'ling, birrov kiramizu chiqamiz.

Mahallachilik, eldan qolib bo'lmaydi. Kirdik. Hovlidagi so'rilar joy qilingan. Ichkari uyda qariyalar. Ayvonda Maxsumning yor-birodarlari. Bitta so'ri bo'sh. Nazarimda artistlar ham aytilgan bo'lishi kerak.

Oldiga sholcha tutilgan burchakdan Isa oshpazning boshi ko'rindi. Behi shoxiga yangigina bo'g'izlangan qo'y orqa oyog'idan osib qo'yilbdi. Maxsumning qamoqdan kelgan o'g'li boshiga yangi surma rang do'ppi kiyib, kelgan-ketganlarga qo'l qovushtirib yuripti.

Buni qaranga-a, to'rt yil ham ko'z ochib yumguncha o'tib ketibdi. Maxsumning shu o'g'li istirohat bog'ida mast bo'lib, bir shofyor bolani pichoqlab qo'ygan edi. Maxsum u yoqqa yugurib, bu yoqqa yugurib, pichoq yegan bolaning tanishini topdi, ota-onasiga odam yubortirdi. Xullas, bolasi tirik qolganidan shukur qilgan ota, davo qilmaysan, deb o'g'liga qasam ichirdi. Baribir davogar kechsa ham hukumat kechmas ekan. Sayfullo to'rt yilga kesildi. Mana, shu to'rt yil bir piyola choy ichguncha o'tdi-ketdi.

Tinmay odam kelib turipti. Quyuq-suyuq ovqatlar tortilyapti.

Dasturxoniga shisha oralab qoldi. Kontsertini tugatib, kech bo'lsa ham artistlar yetib kelishdi. Keksalar o'tirgan joyda stol tagidan piyola uzatila boshlandi. Yoshlar jiringlatib "jabrdiyda, "chaquvdan qamalgan bolaning salomatligiga icha boshladilar.

Ashula avjga chiqdi. Uncha-muncha kayf qilganlarning ovozi ko'tarila boshladi. "Chaquvdan qamalib kelgan bolaning o'zi o'yinga tushdi.

Keyingi paytlarda to'yimi, azami, baribir nutq so'zlaydigan odamlar paydo bo'lib qolgan. Bu yig'in ham shunday bo'ldi.

Soch o'stirgan bir yigit ryumka ko'tarib, o'rta tushdi. Hayron bo'ldim, u nima deyishi mumkin? To'y bo'lsa, kuyov bilan kelinni tabriklardi, imenina bo'lsa to'y egasini tug'ilgan kuni bilan tabriklardy. Chaqaloq to'y bo'lsa, unga umr tilardi. Birovni pichoqlab, qamalib kelganning yig'inida nima deyishi mumkin?

- Hurmatli birodarlar, mana shu tabarruk uying tabarruk dasturxonini ustida o'tiribmiz. O'zingizga malum, Toshkentda kuchli zilzila bo'ldi. Bizning bozorkomimizga qarashli tochkalar ham ancha shikastlandi. Shu bilan demoqchimanki, aziz birodarimiz Maxsum akaning zurriyoti bo'lmish Sayfullo bozorkomning vayron bo'lgan tochkalarini tiklashga o'z hissasini qo'shadi, deb umid qilamiz. Shu qadahni Sayfulloning salomatligiga ko'tarishlaringizni so'rab qolaman.

Ichadiganlar jarang-jurung qilib urishtirdi. Ichishdi. Har qaysi to'da Sayfulloni yoniga chaqirib, alohida-alohida qadah tutishdi.

Sayfullo tushmagur sog'ingan ekan, yo'q deyish esidan chiqib, uzatganni olib yutaverdi. To osh tortilguncha Sayfullo qamoqqa ketishdan oldingi holiga keldi qo'ydi.

- Vey, vey, qamoqqa yigitning guli tushadi. Ish bilgan odam har yerda ham nonini topib ketaveradi. Istalovoyga zavidish bo'ldim.

Ha, o'shatdayam tortib turdik. Ha, do'st!

U dovdirab, aljirab hovlida charx urib yurardi. Birdan mahalla komitetining raisiga ko'zi tushib qoldi. Tepasiga kelib, ikki qo'lini biqiniga tirab turib oldi. Xabarim bor, militsiya idorasi Sayfulloning axloqi to'g'risida xarakteristika so'raganda, u to'g'risini yozib bergan edi. Sayfulloning esidan chiqmagan ekan.

- Vey, qo'lingdan hemiri kelmadi-ku.

Mahalla yigitlari Sayfulloning tirsagidan olib, eshikka opchiqib ketishdi. Biz qo'shnilar ham sekin o'rnimizdan turdik. Chiqib kelayotganimizda Sayfulloni yo'qlab kelgan, o'ziga o'xshagan oshnalariga gap maqullardi:

- Vey, men, men istalavoyda zavidish...

Mana, shu voqeaga ham bir oydan oshdi. Sayfullosi tushmagur "sho'x bola emasmi, yozlik kinoning yonida bir juvonga erining

oldida tegishi. To'rtta odam guvoh bo'lib, o'sha zahotiy oq militsiyaga olib ketishi.

Shunda uning gaplari esimga tushib, ham achinish, ham istehzo bilan dedim:

- Yangi farmon chiqqan, endi istalavoyga zaviddish bo'lmaydigan qilib olib ketishdi. Esonlik bo'lsa, yana besh yildan keyin uchrashamiz-da!

Birinchi muhabbat

Kampir skameykada o'tiripti. Bir chol kiradi. Ko'zoynak taqib skameykadan o'ziga joy qidiradi.

Chol. Shu yerga o'tirsam maylimi?

Kampir. O'tiravering, o'tiravering, boboy.

Chol. Nega meni boboy deysiz. Sizdan yosh bo'lsam kerak, buvijon.

Kampir. Hech jahonda skameykani ham ko'zoynak bilan qidiradimi.

Chol. Shoshmang, shoshmang, kimsiz, ovozingiz juda tanish tuyilyapti.

Kampir. Anketa to'ldirmoqchimisiz. Otim Xadicha. Qo'rg'ontagi mahallasidan bo'laman. Mansurvoyning qiziman. Bo'ladimi? Yo yana aytaymi?

Chol. E, bo'ldi, bo'ldi. Muni qara-ya, Xadichamisan. Voy-bo', tirik ekansan-ku.

Kampir. Nega meni senlaysiz. O'zingiz kim bo'lasiz?

Chol. Tanimadingmi-ya. Axir men oshiq beqaroring Muqimjonman-ku. Otimni aytolmay Maqomjon deyarding-ku, endi esingga tushdimi?

Kampir. Maqomjonman, degin. Men seni inqilobdan oldin o'lib ketgansan deb yurgandim. Muni qara-ya, tirik ekansan.

O'lmapsan.

Chol. Nega o'laman?

Kampir. Ko'p chekarding-da, chilimni shundog'am quldiratarding-ki...

Chol. Keyin popirisga o'tgandim. Sho'ri-mo'ri degan popiris chekardim.

Kampir. Haliyam o'sha-o'sha savodsizliging qolmapti. Sho'ri-mo'ri emas, Chernoe More, deyish kerak.

Chol. Zidi menga bari bir, chekishni bundan qirq olti yil oldin tashlab yuborganmai.

Kampir. To'qsonga kirmay adoyi tamom bo'psan. Ko'zingda qo'sh ko'zoynak, qo'lingda hasa bo'lmasa beling mayishib ketyapti.

Qulog'ingda apparat bo'lmasa yelkangda atom bombasini portlatsa ham bilmaysan.

Chol. Bunaqa tez qarimasdimu xotinim rahmatli yomon edi.

Kampir. Erkaklarning hammasi shunaqa. Begona xotinni ko'rsa darrov o'zinikini yomonlaydi.

Chol. Voy-bo', shunaqa degin-a, ering omon-esson yuriptimi? Oti nima edi, ha, topdim, Orif qirriq, nospurush edi-ya?

Kampir. Bir marta nosvoy sotgani bilan nospurush bo'ladi-qoladimi? Rahmatli bundan yetti yil oldin qazo qilgan. Uchta ordeni bor edi, kostyumiga qadab qo'yganman. Senda nechta orden bor?

Chol. Xotinimning ikkita ordeni bor edi. Yaqinda qazo qildi. Xadicha, ke senam beva, menam beva, ikkovimiz haligidek topishib qo'ya qolaylik.

Kampir. E, gaping qursin, bemani. Nevaralarimga nima deyman, chevaralarimga nima deyman, quda-andalarimga nima deyman?

Chol. E, Xadicha, har kimning huzur-halovati o'ziga. Boshda xo'p deganingda qo'sh kabutar bo'lib yurardik.

Kampir. Bo'shshagan sovchilarni yuborgansan-da, Maqomjon.

Chol. Hecham bo'shshagan emas edi-da, Yuborgan sovchilarimni dadang tayoq olib quvlagan.

Kampir. Opqochib keta qolsang o'larmiding.

Chol. Kambag'allik o'lsin. Qandoq opqochaman. Opqochib qandoq boqaman. Eshak bilan qayoqqa opqochardim.

Kampir. Bu yerda nima qilib ivirsib yuribsan?

Chol. Bitta nevaram Arabistonda tarjimon, bittasi Kubada. O'shanisi "Buvajon bitta izvesnoy suvratingizni yuboring deb yozvoripti. Suvrat oldirgani keluvdim.

Kampir. Haliyam savodsizliging qolmapti, Maqomjon. Izvesnoy emas, svetnoy deyish kerak, bildingmi? Suvrat oldiraman desang shu yerga kelasanmi? Axir bu suvratxona emas, pensiyani oshiradigan sabis. Pensiyam o'zimga yetib turgan edi. Pochtachi qiz, buvijon, sabisga borib knijkangizni oling, pensiyangiz oshgan dedi. Shunga keluvdim.

Chol. Bu joy sabis emas, suvratxona.

Kampir. Yo'q, sabis.

Chol. Kim bilan gaplashayotganingni bilib qo'y. Oldingda mehnat qahramoni, veteran Muqimjon o'tiribdi.

Kampir. Voy, buni maqtanishini qaranglar, bitta sen qahramon bo'psanmi. Mana, menam "Qahramon onaman. Maqtanmayapman-ku!

Chol. Shunaqa degina. Menga qara Xadicha, ke ikkovimiz haligidek topishib qo'ya qolaylik. Qo'sh qahramon bo'lib yuramiz.

Kampir. E, qoch-e, bemaza, gapingda tuz degan narsa yo'q.

Chol. Shahlo ko'zlaring ko'zimga uyqu bermasdi. Qalamdek qoshlaring yuragimga xanjardek sanchilardi. Qani qoshlaringni ko'ray. (Qaraydi). Iya, qosh qani, rasvo qipsan-ku! Naqsh olmadek yuzlaring meni jinni qilardi. Qani yuzlaringni bir ko'ray. (Qaraydi). Yuz qani? Shaftoli qoqining o'zi bo'pqopti-yu...

Shu payt begona yigit o'tib qoladi.

Yigit. Nima qilib jiqillashapsizlar?

Kampir. Pensiya masalasida kelgandim.

Chol. Suvrat oldirgani keluvdim.

Yigit. E, omon bo'linglar, bu yer suvratxona ham emas, sabis ham emas.

Kampir. Bo'lmasam nima bu yer?

Yigit. Bu yer ZAGS.

Chol. Xadicha, xudoning mehribonchiligini qara. ZAGSga o'z oyog'imiz bilan kep qopmiz-ku. Yur ro'yxatdan o'tib chiq qolaylik.

Kampir. E, bor-e, yo'q, qarib quyilmagan bemaza chol. (Ikki bukilib qaltirib chikib keta boshlaydi).

Yigit. Kampiringizmi, boboy, arazlab qoldilar-ku.

Chol. Kampirim bo'ladigan edi, bo'lolmay qolgan. (Kampirning orqasidan- ) Sambitdek qomatlarimga Muqimjon akang girgitton!

Bir kun emas bir kun ishqingda ado bo'laman. Yetmish yildan beri tushlarimga kirasan, bevafo Xadicha. Yuragim kuyib ketyapti.

O'rtanib ketdim-ku, bevafo!

Yigit. Bir piyola muzdekkina "Toshkent suvi quyib beraymi?"

Chol. Mayli, bolam. Yo'q, qo'y, anginam tutib qolmasin.

Yigit. Iya, anginangiz bormi?

Chol. Anginaning o'zi bo'lsa ham mayliydi-ya astmam ham bor. Mana shu xotin meni ado qilgan.

Yigit. (zalga qarab). Birinchi muhabbat sut bilan kirib jon bilan chiqadi, deyishgani rost ekan.

Chol. (qulog'idagi apparatni tuzatib unga yaqin keladi). Nima deding, sut dedingmi? Mayli, qaynoqqina bo'lsa, mayli.

Sinovchi ichuvchi

(Qo'lida mikrofon bilan radio muxbiri kiradi)

Muxbir. Hurmatli radiotinglovchilar. Biz shahrimizni yirik korxonalaridan biri bo'lmish vino zavodining maza ko'rish, yani yangi vinolarning sifatini aniqlash tsexidamiz.

Shu payt oldiga kleyonka fartuk tutgan, burni qip-qizil kishi uning oldiga o'tadi.

Mumkinmi, o'rtoq? Bir minutga mumkinmi? (Kishi to'xtaydi, unga qo'l uzatib ko'rishadi). Kechirasiz, o'zlari shu yerda ishlaydilar?

Kishi. Ha, bu zavodda mendan eski usta yo'q. Qirq yildan beri ishlayman. Zavod birinchi mahsulot chiqarganda o'zim sinaganman.

Muxbir. Gapingizga tushunmadim. Nimani sinagansiz?

Kishi. Men zavod chiqazgan vinolarning birinchi bochkasini ochib, tamini ko'rib, sifatini aniqlaganman.

Muxbir(mikrofonga). Aziz radio tinglovchilar! Har bir korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o'z sinovchilari bo'ladi.

Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini sinovchi uchuvchi deyilar, yangi avtomashinani birinchi yurg'izib beradigan shofyorni sinovchi haydovchi deyilar. "Mana, qarshimizda turgan barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch, g'ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning sinovchi ichuvchisidir.

Shundaymi?

Kishi. Albatta. Men zavodning starshiy sinovchi ichuvchisiman.

Muxbir. O'z ishlaringiz, muvaffaqiyatlaringiz to'g'risida radio tinglovchilarga ikki og'izgina gapirib bersangiz.

Kishi. Jonim bilan. (Mikrofonni uning qo'lidan oladi.) Qirq yildan beri sinovchi ichuvchiman. Men ichib ko'rmasam, bu zavoddan bir tomchi ham vino, araq darvozadan tashqariga chiqmaydi. Men ichib, sifatini aniqlab berganimdan keyin shishalarga quyilib magazinlarga chiqaziladi.

Muxbir. Kechirasiz, kuniga qancha vinoni sinab ko'rasiz?

Kishi. Har kuni zavodimiz yigirma to'qqiz bochkadan shishalarga vino quyadi. Demak, yigirma to'qqiz bochkaning har biridan yuz gramm dan ichib ko'rsam, kuniga ikki litru to'qqiz yuz gramm ichib ko'rarkanman.

Muxbir. Kunli ichish normangiz...

Kishi. Ichish demang, sinash, deng.

Muxbir. Kechirasiz, demak, kunli ichib sinab ko'radigan vinolaringiz salkam uch litr bo'larkan-da.

Kishi. Bazan oshib ham ketadi. Chunki shunday bochkalar bo'ladiki, undagi vinolar sifatini aniqlash ancha qiyin bo'ladi. Ana o'shanday paytlarda ikki-uch martalab sinashga to'g'ri keladi. Ko'pincha savdo tashkilotlaridan istemolchilarning shikoyatlari asosi-da bizga qog'oz kelib turadi.

Muxbir. Bu gapingizga tushunmayapman. Radio tinglovchilarga ochiqroq qilib gapirib bersangiz.

Kishi. Ochig'i shuki, raypishchetorglarning iskaladlarida vinoni o'zlari ichib, kamiga suv qo'shib qo'yish hollari ham bo'lgan. Ana shunda shishalarni do'konga borib ochib sinab ko'rish vazifasi mening zimmamga tushadi. Shunday paytlarda kuniga ikki yuz shisha sinab ko'rgan paytlarim bo'lib turadi.

Muxbir. Kechirasiz, Siz juda masuliyatli vazifani bajararkansiz. O'z o'rningizga shogird tayyorlash masalasida o'ylab ko'rganmisiz? Axir kadr masalasi jiddiy masala.

Kishi. O'ylab ko'rganmiz. Shogird masalasi qiyin bo'lyapti. Bir necha bor yoshlarni olib kelib, yonimda olib ishlatib yurdim. Bu yigitchalar ikky kunga chidamay, yiqilib qolishyapti. Bazilari biripchi kuniyoq hushyorxonaga tushishyapti. Xayriyat, hushyorxonada mening shogirdim ekanligini bilib qolishib, mashinada uyiga oborib qo'yishadi. Aktni ham xizmat yuzasidan ichgan, ichish uning kasbi, deb yozib qo'yishadi. Shunday qilib, shogird masalasida juda qiynalganman. Hozir o'ninchini bitirgan bir bolani shogirdlikka oldim. Hozircha durust. Hozir o'zini chaqiraman. Mahamatka! Ho, Mo'nka!

(Soch-soqoli o'sib ketgan, shirakayf stilyaga bola kiradi.)

Mana shu yangi shogirdim. Kelganiga bir hafta bo'ldi, chidayapti. To'g'ri, birinchi kuni yiqilib qolgan edi, ertasiga bemalol uyiga o'zi ketdi. Qanchadan sinayapsan, bola?

Mahamat. Kuniga bir litrdan oshiryapman.

Kishi. Durust. Bu kelajakda mening o'rimni bosadi.

Muxbir. Demak, o'rinbosaringiz bor?

Kishi. Mahamatka, endi sen ishingga bor. (Mahamat ketadi.)

Muxbir. Ayting-chi, zavodda qirq yildan beri ishlasangiz, umumiy sinagan vinolaringizning miqdorini aytib bera olmasizmi?

Kishi. Hammasini aytolmayman. Ammo o'zim ichganlarimning har yuz grammini yuz litrga chaqsangiz ham men ichganim malum bo'ladi. Masalan, men kuniga uch litrdan oshiq ichgan bo'lsam, shu uch litrdan ortig'ini hisoblamay, ularni dam olish kunlari hisobiga o'tqazib, har yilning uch yuz oltmish kuniga soching, qancha bo'ladi?

Muxbir. Yiliga bir ming sakson litrdan ichib, sinagan bo'lasiz.

Kishi. Ha, balli. Yiliga shunchadan bo'lsa, men bu zavodda qirq yildan beri ishlayman. Endi shu ming sakson litrni qirgga ko'paytiring. Qancha bo'ladi?

Muxbir. Qirq uch ming ikki yuz litr bo'ladi. Mana shu qirq uch ming ikki yuz litr necha bochka bo'ladi?

Kishi. Har bochkaga yuz litrdan sig'adi. Bu yog'ini ham o'zingiz bir hisoblab chiqing-chi.

Muxbir. To'rt yuz o'ttiz ikki bochka bo'larkan. Voy-bo', bir o'zingiz to'rt yuz o'ttiz ikki bochka vinoni ichvordingizmi?

Kishi. Ha, albatta. Bu bizning vazifamiz. O'z kasbimizga kamoli ixlos qo'yganimizdan, shu kasbga muhabbatimiz zo'rligidan muvaffaqiyat bilan o'z ishimizni davom ettirib kelyapmiz.

Kishi. Aytadigan gaplarim ko'p. Ammo bugun qirq bochka sinashim kerak. Shuning uchun qolgan gaplarni keyingi suhbatda aytib

beraman.

Muxbir. Yana bir minut vaqtingizni olaman. Oila azolaringiz va ularning kasblari to'g'risida ham aytib bersangiz.

Kishi. Jonim bilan. Katta qizim tikuvchilik fabrikasida sinovchi kiyuvchi bo'lib ilshmshti. Fabrika chiqazgan jamiki kiyimlarni birinchi bo'lib uch-to'rt kun kiyib beradi. Ko'ylak, kostyum, ich ko'ylak, keyin, manavu yerida tasmasi bor ikki xonali xotinlar taqadigan narsa bor-ku. O'shanisidan ko'proq sinaydi. Ikkinchi o'g'lim konserva zavodi chiqazadigan go'sht konservalarni sinaydi. O'rtancha qizim konditer fabrikasida sinovchi yalovchi bo'lib ishlaydi. Fabrika chiqazadigan shokolad, konfet, tort, pirojniy kabi shirinliklarni yalab sinab ko'radi. Kenja qizim shahar oshxona va rectoranlar trestida sinovchi ho'plovchi bo'lib ishlaydi. U butun shaharda qandoqki oshxona, qandoqki restoran bo'lsa, hammasini shoshmay aylanib, qozonidagi ovqatlarini ho'plab sinab beradi. U ho'plab bo'lgandan keyin ovqatlar xo'randalarga sotiladi.

Muxbir. Demak, farzandlaringizning hammasi ham ota kasbini tanlashibdi-da.

Kishi. Kenja qizimni aytmabman. Kenjadan ikkita. Yani Fotima-Zuhrolar. Shu Zuhro qizim poyabzal fabrikasida sinovchi yo'rg'alovchi bo'lib ishlaydi.

Muxbir. Bu qanaqa vazifa?

Kishi. Bu shundoq vazifaki, yangi chiqqan poshnasi bigiz tuflilarni kiyib komissiya oldida yo'rg'alab yurib ko'rsatadi va bir hafta ko'chalarda har xil sharoitda, masalan, yomg'ir, mabodo yomg'ir bo'lmasa, suv sepilgan yo'llardan yurib, tuproqli joylardan yurib, loy kechib sinab beradi. Shunday qilib, bolalarimning biri sinovchi yeyuvchi, biri sinovchi yalovchi, biri sinovchi ho'plovchi, biri sinovchi yo'rg'alovchi, biri sinovchi kiyuvchi bo'lib ishlashadi. Ular o'zlariga topshirilgan vazifani plandanoshirib bajarib kelmoqdalar.

Muxbir. Kechirasiz, kelin ayam ham biron joyda ishlasalar kerak?

Kishi. Yo'q, hozir ishlamaydi. Avval u trikotaj fabrikasida ishlardi. Yani, u sinovchi kiyuvchi edi. Yangi paypoqlarni kiyib sinab berardi. Xotin kishi qarimasin ekan. Ozib, oyog'i xalta bo'lib standartga to'g'ri kelmay qoldi. Ayniqsa, boldiri so'lidan bodringga o'xshab to'pig'iga osilib tushib qoldi. Hozir pensiyaga chiqqan.

Muxbir. Demak, kelin ayam uyda ovqat qilish, kir yuvish ishlari bilan band ekanlar-da.

Kishi. Yo'q. Bizning uyda ovqat qilinmaydi. Masalan, o'g'lim o'zi sinaydigan konserva zavodidan sinash uchun to'rt-beshta konserva olib keladi, butun oila azolari bir bo'lib, kechki ovqat paytida sinab qo'ya qolamiz. Ertalabki nonushta paytida konditer fabrikasida ishlaydigan qizim sinash uchun konfet, pechene, tort, shokolad olib keladi. Butun oila azolari bir bo'lib, birpasda sinab tashlaymiz. Tushlik paytida yana hammamiz uyga yetib kelamiz. Oshxona va restoranlar trestida sinovchi ho'plovchi bo'lib ishlaydigan qizim kotlet, lag'mon, kabob, manti, somsa kabi arzimagan narsalarni sinash uchun uyga olib keladi. Yana ko'pchilik bo'lib bir soatda sinab tashlaymiz.

Muxbir. Demak, kelin ayam faqat kir yuvarkanlarda?

Kishi. Yo'q. Bizning uyda kir yuvilmaydi. Tikish fabrikasidan qizim sinashga ko'ylak, pastki ich kiyim, kostyum, u-bularni olib keladi. Bir hafta kiyib, sinab yana fabrikaga o'z fikrlarimizni yozib qaytarib yuboramiz. O'rniga sinash uchun o'sha kuniyoq yangisini yuborishadi.

Muxbir. Mazmunli suhbatingiz uchun radio tinglovchilar nomidan katta rahmat. (Qo'lida mikrofon bilan zalga qarab.) Shu bilan vino zavodidan, "Ilg'or sinovchi ichuvchi degan reportajimiz tugadi. Eshittirishni olib borgan sinovchi yozuvchi To'lqiniy.

(Kishiga qo'l berib.) Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.

Kishi. Qani, ichkariga marhamat. Bir-ikki bochkadan siz ham sinab ko'ring. Birga sinashamiz.

Muxbir. Rahmat. (Ikkovi qo'l berib xayrlashishadi.)

Tabelchi

Ergash bilan Hasan bir-biriga ro'para kelib qolishadi.

Ergash. Kechirasiz, ilg'or qizlar brigadasiga shu yo'ldan boriladimi?

Hasan. Ha, shu yo'ldan boriladi, o'rgilay. Nima ishingiz bor edi? Bo'yingizdagi magnitafonga qaraganda muxbirga o'xshaysiz, tasaddiq.

Ergash. Topdingiz. Radiodan keldim. Shu ilg'or qizlar brigadasi to'g'risida radioga bir reportaj yozib olmoqchi edim.

Hasan. Niyatingiz xolis ekan. Kerakli odamni topdingiz, o'rgilay. Men shu brigadaning tabelchisi bo'laman. Eshitgandirsiz. Hozir abet payti. Borganingiz bilan biron nima yozib ololmaysiz. Qanaqa gap kerak bo'lsa mana, o'zginam aytib beraveraman.

Ergash. Qizlar brigadasida erkak odamning ish-lashi juda qiyin bo'lsa kerak?

Hasan. Nimasini aytasiz, o'rgilay. Qiyinligiyam bor, osonligiyam bor. Osonligini aytam shuki, qoqindiq, erkaklar brigadasida tushlik, yani abet bir soat. Xotinlar brigadasida ikki soat. Bir soat ovqatga, bir soat bola emizishga. Xotinlar bolalarini emizib olishguncha men ham tolning tagida mizg'ib olaman. E, aytaversam ayollar brigadasida ishlashning juda ko'p yaxshi tomonlari bor. Masalan, erkak zoti biron marta ham tug'ilgan kunini nishonlamaydi. Xotin-qizlar tug'ilgan kunlarini sira esdan chiqazishmaydi. Yil o'n ikki oy imenina bo'ladi. Qizlari tushmagur meni to'rga o'tqazib qo'yishadi. Men ham baholi qudrat topganimni gazetaga o'rab, zing'illab boraveraman. Xo'sh, yana nimasini aytay? Ha, aytgancha iimasi ko'p ularning, tug'ishi ko'p. Beshik to'yiga ham meni chaqiraverishadi. Birga ishlashgandan keyin tashlab ketishmaydi-da. Men ham bir kiyim shtapelni qo'ltiqlab suzilib kirib boraveraman. Erkaklar birinchi May bilan Oktyabr bayramida o'ynab kulishadi. Men bo'lsam ham mayda, ham oktyabrda, ham sakkizinchi martda dam olaman. Sakkizinchi martda butun brigadamizni prezidiumga chiqazishadi. Qizlari tushmagur, qaqqajonlar, qo'limdan sudrab meni ham opchiqib ketishadi. Avvalgi yili xalqaro xotin-qizlar yili bo'ldi, undan avval bolalar yili bo'ldi, ana o'sha yillari jonimizni rohati bo'ldi. Qaerga borsak izzat-ikrom. Brigadamiz paxta terimida eng birinchi bo'lib marraga yetganda hammamizga rais buva bir kiyimdan atlas sovga qildilar, menga ham bir atrez tegdi. Yo'q, bir atrezdan sal mo'lroq ekan, lozimga ham chiqadi, deb sandiqqa tashlab qo'ydim. Yaqinda "Saodat jurnalidan kelib suvratimizni olishdi. Ko'rgandirsiz, svetnoy bo'lib chiqdi-ku, o'rtasida men o'tiribman.

Ergash. Bu tomonlari zo'r ekan. Haqiqatan sizga maza ekan.

Hasan. Voy, o'rgilay sizdan, bu tomoni yaxshi bo'lgani bilan nax, yomon tomonlari borki, odam bolasi chidamaydi. Ayol kishi bazi birda ayolligini qilarkan. Bazi vaqtlarda men bechorani yakkalab qo'yishadi. Masalan, saraton kunlari brigada yerining etagidagi anhora cho'milgani boramiz. Meni tashlab ketishadi. Kiyim-boshiga qorovullik qilib, teskari qarab o'tiraman. Idoragami, buxgaltergami boradigan bo'lishsa, bolalarini tizzamga o'tqazib ketaverishadi. Ayniqsa yasli remont qilinganda o'n ikkita bolani boqqanman. Voy, o'rgilay, menga oson tutmang, bolalar biram sho'x, biram sho'x. Yerga ursang, osmonga sakrayman, deydi. O'sha



kezlarda ishdan qayta turib choyxonaga kirgan edim, samovarchi o'lgur oldimga choy qo'ya turib nima deydi, deng. Voy, bola emizganmisan, hamma yog'ingdan tuqqan xotinning hidi kelyapti, deydi. E, choying ordona qolsin, dedimu shartta turib samovardan chiqib ketdim. Bir kuni idoraga borsam buxgalterimiz: hoy, marjonning qulliq bo'lsin, desa bo'ladimi? Bundoq qaragam uxlab qolganimga qizlardan bittasi marjonini bo'ynimga ilib qo'ygan ekan, men o'lgur bilmasdan bo'ynimda marjon bilan idoraga boribman. Qiz tushmagurlar, uxladim deguncha bir qiliq chiqazishadi, bir kuni labimga qizil surtib qo'yishi, bir kuni yuzimga upa surtishi. Qandoq qilaman, chidayman, o'rgilay. Kolxozimiz medpunkti namunali medpunktlardan hisoblanadi. Har oyda jenkonsultatsiyadan bitta do'xtir xotin kelib xotin-qizlarni ko'rikdan o'tkazadi. Barmog'idan qon olib, shishaga surtib, qorinlarini o'lchab ketadi. Bir kuni kelganda do'xtir xotin o'lgir: hoy, qani qorningizni o'lchab qo'yay; deydi. Jon-ponim chiqib ketdi. E, tusingni yel yesin, dedimu orqamni o'girib o'tiraverdim. Endi mulla aka, aytaversam gap ko'p. Brigadamizga borganingizda o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz. Yana ko'p gaplarni aytib berardimu, shoshib turibman-da.

Ergash. Qayoqqa shoshyapsiz?

Hasan. Manavu ro'yxatlarni ko'ryapsizmi? Hammasi kelinchaklarni zakazi. Aptekadan paxta olishim kerak, univermagda tanishim bor, frantsuzcha kompaktniy pudra, oltita tush, keyin ikki kuragining o'rtasidan tugma bilan qadaydigan, savil qolgur anavu narsadan oltita bezrazmerniy, o'n yumaloq bint, keyin bozordan nordonroq biron narsa. To'rttasining boshi qorong'i, o'rgilay. Tashvishini men qil-masam kim qiladi. Xullasi qo'limdagi ro'yxatda juda ko'p narsalar bor. Ketyapman, o'rgilay. Xayr bo'lmasam. Aytganча radioda gapirsangiz meniyam otimni biron joyga qistirib keting, xo'pmi?

Ergash. Xo'p bo'ladi, opajon, yo'g'e akajon.

Meni kechiring

Ergash(sekretarga.) Yonimga hech kimni kiritmang. Boshqarmaga otchyot tayyorlayapman. (Kirib ketadi.)

Hasan (kiradi.) Xo'jayin o'zlaridamilar?

Sekretar. U kishi bugun hech kimni qabul qilmaydilar. Boshqarmaga otchyot tayyorlayaptilar.

Hasan Ikki og'izgina gap xolos. (Sekretarning qarshiligiga qaramay eshikni ochib kiradi.) Assalomu alaykum. (Ergash bosh ko'tarmaydi.) Ahvollar yaxshimi, xo'jayin. Bola-chaqalar, jiyanu jiyanchalar, quda-andalar...

Ergash. Gapni qisqa qiling. Ishim tiqilinchroq. Aytin nima gapingiz bor.

Hasan Shoshmang, xo'jayin. Avval bir hol-ahvol so'rashvolaylik.

Ergash. Gapning lo'ndasini aytaqoling, shoshib turibman.

Hasan Men ahmoqni kechiring. Nodonlik qildim.

Ergash. Sizni tanimay turibman.

Hasan Iya, iya, nahotki tanimasangiz? (o'zicha gapiradi.) Ustomonlik qilyapti. Ikki dunyoda kechirmaydi, bu ablah. Xo'jayin kechirib qo'yaqoling. Ayb menda.

Ergash. Qanaqa ayb ekan. Bilmayroq turibman.

Hasan (o'zicha). Bilmas emish-a. Qo'yib bersa xap etib, yeb qo'yishga tayyorsan, ablah!

Ergash. Bo'ladigan gapni gapiring. Qanaqa ayb qilgansiz?

Hasan (ho'... tulki. Bilmas emish-a). Menga qarang, xo'jayin. O'sha kuni meni anavu ablah Sadir amaki yo'ldan urdi. Xo'jayinning tagi qimirab turibdi, sen ham bitta-ikkita tosh otib qol. Bir nimali bo'lib qolasan, deb laqillatdi. Men ahmoq, men durrak o'sha ablahning gapiga kirib Sizni tanqid qildim-a. Shundoq begunoh parishtadek beozor, sizdek tiniq odamga loy chapladim-a.

Leonarda Vinchimi, Mahtumqulimi qaysi biri: "sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi, deb aytgan ekan, men ahmoq, men durrak sizdek olijanob mushuk bilan o'ynashamanmi! Hozir oldingizda o'zimni chavaqlab tashlayman?!

Ergash. Yo'q, yo'q, unafa qila ko'rmang. (o'zicha.) Nima balo deb tanqid qilgan ekan, aslo eslayolmayapman.

Hasan (eslayolmaysan-a, eslayolmaysan. Payt poylab terimni shilib, somon tiqasan, yaramas). Jon, xo'jayin, kechirib qo'yaqoling.

Ergash(diqqat bo'lib). Kechirdim, bemalol uyingizga ketavering.

Hasan Rostdanmi? Astoydil aytyapsizmi?

Ergash. Hoy birodar, ishim mana shundoq tiqilinch. (Qo'lini kekirdagiga arra qilib ko'rsatadi.)

Hasan Ketaversam bo'ladimi? Bemalol ketaveraymi?

Ergash. E, ezma bo'lmay o'! Bemalol ketavering!

Hasan Xo'p bo'пти. Ketdim. (Chiqib ketadi.)

Ergash. Bu ezma churuk kim o'zi, qachon, nima deb tanqid qilgan ekan? Sira eslayolmayman. (Qog'ozlarni titkilaydi.) Ikkinchi kvartal bir yuz uch, uchinchi kvartal bir yuz sakkiz...

Hasan (eshikni ochib muloyimlik bilan kiradi). Bir og'iz gap chala qopti, xo'jayin. Petr Perviyimi, Devonayi Mashrabmi bittasi aytgan ekan "o'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan. Men ahmoq, men durrak, sizdek oliy zot arbob bilan o'ynashib yuribmanmi-ya. Har biri tilla bahosiga teng keladigan, gavhardan qimmat so'zlaringizni eshitib, to tramvay ostanovkasigacha o'y-o'yab, donoligingizga tan berib bordim. Ammo tramvayga oyoq qo'yishim bilan lop etib bir gap esimga tushdi-yu, oyog'imni qaytarib olib yana shu tarafga, nurlil huzuringizga qaytdim.

Ergash(oh urib yuboradi). Tag'in nima gap bo'ldi?

Hasan Hamma gapingiz tillo. Sizdan brilyantdek serjilo, gavhardek nurli, asaldek shirin gap chiqishini bilaman. Ammo qo'lingizni manavundek qilib (kekirdagiga arra qilib ko'rsatadi) ko'rsatganingizni tushunmadim. Nima, meni bo'g'izlamoqchimisiz? Meni-ya? Meni sakkizta bolam bor. Qari ota-onam bor. Bir qizim to'rt bolasi bilan eridan ajralib uyimga kelib o'tiribdi. Qaynatam o'rnidan turolmaydi. Kechasi ikki marta turib ko'rpato'shagini yangilayman. Xo'sh, meni bo'g'izlab shuncha bolamni o'zingiz boqasizmi? Qaynotamni to'shagini ikki mahal yangilaysizmi? Xo'sh, gapiring. Undan ko'ra meni kechirib qo'yaqolsangiz bo'ladi-ku. Men ahmoqni, men durrakni kechirib qo'ysangiz bo'ladi-ku.

Ergash(toqati toq bo'lib). Kechirdim. Ming marta kechirdim, birodar.

Hasan Shunaqa deypapsiz-u gapingiz astoydilga o'xshamayapti.

Ergash. Hoy baraka topkur, bundan boshqa qanaqa qilib kechiray?

Hasan Ovozingiz sal titrabroq chiqyapti-da. Astoydilga o'xshamayapti. Undan tashqari basharangiz ham unchalik mayin bo'lmayapti.

Ergash. Kechirdim, kechirdim, kechirdimm...

Hasan Bari bir kechirganingiz bilinmayapti.

This is not registered version of TotalDocConverter  
Ergash. (Hozirgi kuni) Kechirishi o'xshaydi. Hozir do'xtir chaqiraman. Tirik qolsa kechirmaguncha qo'ymayman. Mabodo o'lgani rost bo'lsa, alvido!!